



КАЗАХСТАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ ИНУНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЯ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rghanish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,

Y.Shirinova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/OJLH8793

DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI

Botirova Nigora Nurulla qizi

*Tayanch doktorant, Ta'lif-tarbiya nazariyasi va metodikasi yo'nalishi,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada darsliklardan o'rincidan hikoya janriga xos asarlarning o'qitish metodikasi xususida so'z yuritiladi. Zamonaviy ta'lilda hikoyalarni o'qitishda zamon talabiga mos metodlarni tanlash dars jarayonining sifatli bo'lishini ta'minlashi bilan birlgilikda o'quvchilarni ham ushbu jarayonga to'la-to'kis jalg eta olish imkoniyatini beradi. Hikoyalarni o'quvchilarga tushuntirishda uning har bir detalliga alohida e'tibor berish, ularning hikoya mazmunini to'la-to'kis anglashlariga sharoit yaratish, shuningdek, zamonaviy metodologiya va dars o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash har bir pedagog oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni ham alohida qayd etish lozimki, darsliklarda berilgan hikoyalarni o'qitishda o'ziga xos metodik uslubiyatni tanlay olish hikoyalarning struktur xususiyatlarini ochib berishga imkon yaratadi. Ta'kidlash lozimki, texnika va texnologiyalar taraqqiy etayotgan bir davrda hikoyalarni o'qitishda ushbu vositalarni ham jalg eta bilish ham o'qituvchining pedagogik mahoratidan dalolat beradi.

Kalit so'zlar: adabiyot ta'limi, metodika, hikoyalarni o'qitish, zamonaviy yondashuv, texnologiya, imkoniyat.

Абстрактный. В статье рассматривается методика преподавания произведений повествовательного жанра, включенных в учебники. В современном образовании выбор современных методов преподавания историй не только обеспечивает качество процесса обучения, но и позволяет учащимся быть полностью вовлеченными в этот процесс. Одна из важных задач, стоящих перед каждым учителем, — уделять особое внимание каждой детали при объяснении учащимся рассказов, создавать условия для полного понимания ими содержания рассказа, обеспечивать связь современной методики с уроком. Следует также отметить, что выбор определенного методического подхода при обучении по рассказам, изложенным в учебниках, позволяет раскрыть структурные особенности рассказов. Следует отметить, что в эпоху развития технологий способность включать эти инструменты в обучающие истории также является свидетельством педагогического мастерства учителя.

Ключевые слова: литературное образование, методология, обучающие истории, современный подход, технология, возможность.

Abstract. This article discusses the teaching methodology of works of the narrative genre included in textbooks. In modern education, the choice of methods that meet the requirements of the time in teaching stories not only ensures the quality of the lesson process, but also allows students to be fully involved in this process. Paying special attention to every detail when explaining stories to students, creating conditions for their full understanding of the content of the story, as well as ensuring the connection between modern methodology and the lesson are important tasks facing every teacher. It should also be noted that choosing a specific methodological approach in teaching stories given in textbooks makes it possible to reveal the structural features of stories. It should be noted that in an era of developing technology, the ability to involve these tools in teaching stories also indicates the pedagogical skills of the teacher.

Keywords: literature education, methodology, teaching stories, modern approach, technology, opportunity.



Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda darsliklarga kiritilayotgan badiiy asarlar zamon talabiga mos va mutanosib bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sababi, tanlangan har bir asar o'quvchilarning teran fikrlashi, mulohaza yuritishi, o'zligini anglash, milliy mentalitet tuyg'ularini his qila olish kabi jihatlarni o'zida namoyon etadi. Asar o'qilganda yuqorida ta'kidlangan har bir jihat o'quvchilarning tafakkur olamida in'ikos etishi adabiyot fani oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi. Ana shunday jihatlarni o'zida aks ettirgan janrlardan biri bu hikoya janri sanalib, ushbu maqolamizda darsliklarga kiritilgan hikoya janriga oid asarlarni o'qitish metodikasi xususida so'z yuritamiz.

Hikoya hajman kichik asar hisoblanib, ular, odatda, "kishi hayotida bo'lgan bir epizodni tasvir etadi. Uning mazmunini ertakdagidan ortiqroq hayotiydir" [Султонов, 1980; 225]. Maktab darsliklarida berilgan hikoyalarni o'qitishda hikoya mazmunini e'tiborga olish, asar leksemasi ustida ishslash, matn mohiyatini anglash, hikoyaning tahliliy xususiyatlariga diqqat qilish va asar haqida xulosa chiqarish kabilar dars jarayonida foydalaniladigan an'anaviy usullar hisoblanadi. Ular asar va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yuzaga keltirishga xizmat qiladi. Shuningdek, hikoya matni ustida ishslash jarayonida ushbu jihatlar ham e'tiborga olinishi an'anaviy metodologik yondashuvning o'ziga xos yo'sini sifatida namoyon bo'ladi:

1. Matn mazmuni yuzasidan o'qituvchi savollariga javob berish.
2. Hikoya matni asosidagi savol-topshiriqlarni bajarish.
3. Hikoya mazmuni yuzasidan o'quvchilarning savollar tuzishi.
4. Hikoya mazmuniga mos rasmlar chizish.
5. Hikoya matnnini qismlarga bo'lish.
6. Har bir qismga sarlavha topish.
7. Hikoyaga reja tuzish.
8. Reja asosida qayta hikoyalash (to'liq, qisqartirib va ijodiy qayta hikoyalash).
9. Reja asosida bayon yozish [<https://muhaz.org/maruza-mavzu-hikoya-janridagi-asarni-oqitish-metodikasi-sheriyl.html>].


Keltirilgan tahlil namunasidan ko'rinish turibdiki, an'anaviy ta'limda hikoya matni bilan ishslash ustuvor vazifa sanaladi. Ammo zamonaviy metodologiya o'zida an'anaviy tahlil namunalarini mujassam etishi bilan birgalikda mazmun uyg'unligi, asar mohiyatini o'quvchilarga yetkazish kabi jihatlarni ham namoyon etmoqda. Bu esa bugungi ta'limning naqadar tizimli xarakterga ega ekanligidan dalolat beradi. Biz esa ushbu maqolamizda darsliklarda keltirilgan hikoyalarni o'qitishning an'anaviy va zamonaviy usullari intergatsiyasiga asoslangan metodlarni bayon etishga harakat qilamiz.

Darsliklarda keltirilgan hikoyalar bilan tanishish jarayoni uch bosqichdan iborat:

1-diagramma.

Hikoya janriga xos asarlar bilan tanishish tadrijiy bosqichlari





1-bosqich, ya'ni pre-reading bosqichida o'quvchi asarni o'qishdan oldin bo'ladigan jarayonlar bilan tanishadi. Bunda asarni qay tartibda o'qish mumkin, qanday usullardan foydalaniladi va shu kabi savollar ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyati hisoblanadi. Buni quyidagi diagramma orqali aks ettirish maqsadga muvofiq:

2-diagramma.

Hikoya janriga oid asarlar bilan bog'liq pre-reading, ya'ni oldindan o'qish jarayoni

Asar qanday ekanligi xususida xayolan tasavvur qilish, asarni ko'z oldiga keltirish, ya'ni vizualizatsiya



O'z-o'zi bilan asar haqida savol-savol javob qilish: nega asar bu shaklda boshlangan, nega bu qahramonlar obraz sifatida tanlangan?



Hikoya mazmunini hayotiy voqealarga (atrof-muhitida sodir bo'layotgan voqealarga bog'lash) o'zaro qiyoslash

Ushbu pre-reading jarayonini Umumta'lim maktablarining 5-sinflari uchun mo'ljallangan Adabiyot darsligiga kiritilgan Isajon Sultonning "Otamga nimadir bo'ldi..." hikoyasi asosida ko'rib chiqamiz. Asarning pre-reading qismi yuqorida keltirilgan diagrammada qayd etilgan ma'lumotlar asosida bosqichma-bosqich olib boriladi, ya'ni o'quvchilar ushbu asarning nima haqidagi ekanligini aniqlashlari o'zlariga havola etiladi – ular asar xususida o'z taxminiy fikrlarini



aytishlari, asarning qanday mazmunda ekanligini farazan o'ylashlari, shuningdek, asar nomi borasida uning nega bu tarzda tanlanganligining o'ziga xos mulohazalarini bildirishlari mumkin. Asar matni bilan tanishish va keyingi bosqich – asardan xulosa olish – o'zaro uzviy aloqadordir. Ushbu jarayonlardan so'ng o'quvchilar kontekst bilan ishslash va hikoyaning tub mohiyatini anglash borasida metodologik topshirishlar birin-ketin bajariladi.

Hikoyalari o'qitish metodikasidan ayrim namunalar

1-metod. "Mo'yqalam" metodi

Ushbu metodga ko'ra o'quvchilar Isajon Sultonning "Otamga nimadir bo'lди..." hikoyasidagi obrazlar hissiyotlarini turli ranglarda tasvirlashlari lozim. Jarayonda ranglar va hissiyotlar uyg'unligini aks etadi. Obrazlar kayfiyati, ularning ruhiyat olami tanlangan ranglarga muvofiq holda tasvirlanadi, masalan:

Qaysi obraz?	Qanday rangda tasvirlash mumkin?	Ushbu rang tanlanganligining sababi nimada, asar asosida izohlang.
Ota	Ko'k – soflik timsoli	Bolalarining kelajagi uchun mas'ul obraz: "Otam o'sha olisdagi o'lkkalar haqida hikoya qilib beradi. Yo'l yurarmish, yo'l yursayam, mo'l yurarmish. U yoqlarda rosa qorlar yog'ar ekan. Oqayiqlar bo'kirib yurarmish... Odamlari yog'ochdan, muzdan kulba qurib yashar emishlar".
Ona	Yashil – umidvorlik ramzi	Otaning ishga ketishi farzandlarining kelajagini ta'minlash uchun muhim omil: "Ketmasa bo'lmaydi-da, toyim. Senlarni boqib katta qilish kerak, shuncha tashvishni qanday eplasin?"
Aka	Oq – poklik ramzi	Otasi uchun jonfido obraz: "Ota, – dedim. – Bo'ynoqni bostirmaga boylab qo'yaylik, qachon oldidagi suv aynib qolsa, kuchuk yer tishlab irillayversa, shundan sizga bir nima bo'lganini bilib olamiz. Keyin o'zim borib, sizni qutqarib kelaman"
Uka	Kulrang – xavotir ramzi	Uka xavotirda. Buni asardagi quyidagi jumladan ko'rishimiz mumkin: "Menimcha, otamga bir nima bo'lди. Razm soldingmi, bir kechada etakdag'i burgan bilan sho'ra o'sib ketdi. Mevali daraxtlarga qaradingmi? Behi meva solgan joyida bujmayib qoldi. Shaftoli mevalarini to'kib yubordi"

Ushbu metodni har bir o'quvchi asar qahramonlariga bo'lgan shaxsiy munosabatlari asosida shakllantirishlari mumkin.

Badiiy asarlarni o'zlashtirish har bir o'quvchining tafakkur olami, dunyoqarashi, badiiyatidan kelib chiqib belgilanadi. F. Asmus bu xususida shunday degan edi: "Bir ko'zadan ikkinchisiga quyilgan suv kabi kitobxon miyasiga quyila olmasligini, balki aqliy, ruhiy, ma'naviy faoliyat orqali asarda keltirilgan ma'lumotlarga tayanib, kitobxonning o'zi tomonidan qayta yaratilib va qayta ishlab chiqilishi lozim" [Abdullayeva, 2024; 110]. Maktab darsliklaridan olingan asarlarni ham yuqorida keltirilgan fikrlarni nazarda tutgan holda o'quvchilarga tushuntira olish, ularga asar mohiyatini yetkaza bilish uchun mos metodlarga murojaat qilish shart. Ana shunday metodlardan yana bir "Muammoli vaziyat" metodi hisoblanadi.

2-metod. "Muammoli vaziyat" metodi



Ushbu metodga ko'ra, o'quvchilarga asar asosida muammoli vaziyatlarga mos savollar taqdim etiladi. Ular asar bilan tanishib chiqqach, asar borasida o'quvchilarga quyidagi savollarni taqdim etish mumkin:

1. Nega ota o'z oilasini tashlab uzoq yurtlarga ketishga majbur bo'ldi?
2. Sizningcha, farzandlar nega o'z otasidan xavotirda, bunga asosli sabab bor deb hisoblaysizmi?
3. Onaning otaning ketishiga munosabati qanday, undagi xavotir tuyg'usi qay shaklda namoyon bo'lgan?

"Muammoli vaziyat" metodi uchun tanlangan savollar o'quvchilarning yoshidan kelib chiqib tanlanishi maqsadga muvofiq.

3-metod. "Sun'iy intellekt va hikoyat" metodi

Bu metodga muvofiq o'quvchilarning sun'iy intellekt bilan ishslash ko'nikmasini asar asosida oshirish mumkin. Buning uchun sun'iy intellekt bilan ishlovchi saytlarga murojaat qilinadi hamda saytga asardan olingan parchalar kiritiladi hamda sun'iy intellekt taqdim etgan suratlar ularga havola etiladi – ushbu jarayon 5-sinf o'quvchilari uchun o'qituvchi hamkorligida amalga oshirilishi lozim. Namuna:

Sun'iy intellektga ([AI Photo Generator \(realistic, free, no sign-up, no limits\)](#)) asardan olingan quyidagi matn kiritildi:

...Otam o'sha olisdagi o'lkalar haqida hikoya qilib beradi. Yo'l yurarmish, yo'l yursayam, mo'l yurarmish. U yoqlarda rosa qorlar yog'ar ekan. Oqayiqlar bo'kirib yurarmish... Odamlari yog'ochdan, muzdan kulba qurib yashar emishlar...

Sun'iy intellekt taqdim etgan natijaviy suratlar esa quyidagicha:



O'quvchilarga sun'iy intellekt asosida hosil qilingan ushbu rasmlar namoyish etiladi. Ushbu metodni hikoyalarni o'qitishda qo'llashdan quyidagicha natijalar olish mumkin:



a) O'quvchilarning asar haqida tasavvur hosil qilishlari uchun imkoniyat yaratiladi;

b) Vizualizatsiya qobiliyatining shakllanishiga sabab bo'ladi;

c) Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati shakllanadi.

4-metod. "So'z va izoh" metodi

"So'z va izoh" metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning asardan o'rinni olgan notanish so'zlar izohini o'rganishlari uchun imkoniyat yaratish mumkin. Bunda hikoyadan olingan so'zliklar tanlab olinib, ularning ma'nosini topib kelish o'quvchilar uchun uyga vazifa uchun berilsa, nur ustiga alo nirdir. Namuna:

Tanlangan so'z

Izohi

/r

Xivich

Ho'l, uzun novda, xipchin

Sas

Ovoz, tovush

Chatnoq

Darz ketgan, yorilgan

Chetan

Buta nomi. Uning novdalaridan maxsus to'rli savat va qafaslar to'qiladi. Daraxtning novdalaridan qilingan devor ham chetan deb yuritiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, darsliklarga kiritilgan hikoya janriga xos asarlarni o'rganishda qo'llangan metodlar dars mavzusiga, o'quvchilarning yosh, psixologik xususiyatlariiga mos bo'lishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarga asoslangan metodlarni hikoya o'qitish jarayoniga tatbiq etish ta'lim sifatining yanada oshishiga xizmat qiluvchi omil sanaladi.

Foydalanimanligi adabiyotlar:

1. Abdullayeva A. Adabiy ta'lilda innovatsion yondashuv. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Bookmany print, 2024. – 222 b.
2. G'oziyev E. Psixologiya. – Toshkent: O'qituvchi, 2008. – 105 b.
3. Husanboyeva Q., Niyazmetova R. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent. – 146 b.
4. Matchonov S. Maktabda adabiyotdan mustaqil ishlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 230 b.
5. Qambarova S. "Muallif pozitsiyasi"ni o'rganish – badiiy asarni tushunish omili sifatida. "Pedagogik mahorat" ilmiy- nazariy va metodik jurnal. 2023, №4.
6. Uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim-mavzu rejalar (5-9-sinflar). (Tuzuvchilar: M. Abduraimova, G. Ziyodullayeva), Toshkent, "Sharq", 2010. – 160 b.
7. Yo'ldoshev Q., Fayzullayeva O. "Badiiy tahlil asoslari" fani bo'yicha o'quv-uslubiy majmua. – Guliston, 2020. – 220 b.
8. Yo'ldoshev Q., Muhayyo Yo'ldosh. Badiiy tahlil asoslari. – T.: Kamalak, 2016. – 464 b.
9. Левидов А. Автор – образ-читатель. – Ленинград, 1983. – 350 с.
10. Султонов И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 245 б.
11. www.hozir.org
12. www.wikipedia.org
13. www.ziyouz.com
14. www.google.com



<i>Botirova Nigora Nurulla qizi. DARSLIKLARDA BERILGAN HIKOYA NAMUNALARINI O'QITISH METODIKASI</i>	881
<i>Ibroximova Surayyoxon Shodibek qizi. ZAMONAVIY ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH</i>	887
<i>Ismoilova Maxliyo Atxamali qizi. ADABIYOT O'QITISHDA EPISTOLYAR NAMUNALARDAN FOYDALANISH (MUSO TOSHMUHAMMAD O'G'LI OYBEK IJODI MISOLIDA)</i>	893
<i>Meliboyeva Dilafruz Abdurahim qizi. 6-SINF ADABIYOT DARSLARIDA SINFDAN TASHQARI O'QISH MASHG'ULOTLARINI O'TKAZISH YUZASIDAN MULOHAZALAR</i>	898
<i>Meyliyeva Nasiba Tolmas qizi. 5-7-SİNFLAR ADABIYOT DARSLARIDA SHE'RİY ASARLARNING BADIY TİL XUSUSİYATLARİNİ O'RGATISH METODİKASI: MİRTEMİR VA ANVAR OBİDJON SHE'RLARI MİSOLIDA</i>	903
<i>Nomozova Dilobar Suyun qizi. FAXRIYOR SHE'RIYATINI O'QITISHDA INNOVATSİON YONDASHUVLAR</i>	908
<i>Qodirova Dilnoza Alisher qizi. ADABIY TA'LIMDA O'QUVCHILARNING REFLEKSIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SİFATIDA</i>	916
<i>Qosimova Munisa Botirjon qizi. KEYS TEXNOLOGIYASINING O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI</i>	920
<i>Raxmatova Karima Erkinovna. DRAMATIK YARATIQLARNI O'QITISH QANCHALIK MUHIM?</i>	925
<i>Saydullayeva Shoira Kaxramon qizi. TARIXIY ROMANLARNI O'QITISHDA KONSPIROLOGIYA NAZARIYASIDAN FOYDALANISH</i>	930
<i>To'g'onova Dinoraxon Mansurjon qizi. ADABIYOT DARSLARIDA INTERAKTIV O'QITISH MODELINING AMALIY TARAQQIYOTI VA AMALIYOTI</i>	935
<i>Toshpulatova Marjona Jamoliddinovna. UMUMTA'LIM BOSQICHLARIDA "XAMSA" DOSTONINI O'QITISH</i>	942
<i>Xolova Sabina Jo'raqulovna. LIRIK ASARLARNI O'QITISHGA XOS YONDASHUVLAR (O'ZBEKİSTON VA TURKIYA TA'LIM TİZİMİ MISOLIDA)</i>	950
<i>Xudoynazarova Sug'diyona Tillamurodovna. ADABIYOT DARSLARIDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI</i>	953
<i>Xujanova Nilufar Do'smat qizi. GLOBALLASHUV SHAROITIDA RAQAMLI SAVODXONLIKNING TA'LIM JARAYONIDAGI AHAMIYATI</i>	958
<i>Xo'jayeva Mohinur Tulqinovna. ADABIYOT DARSLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH IMKONIYATLARI</i>	964
<i>Norqulov Nurzod Saidmurodovich. MUMTOZ NASRIY ASAR TAHLILI YUZASIDAN ZAMONAVIY QARASHLAR</i>	968
<i>Abdullayeva Dildora Shokir qizi. ALISHER NAVOIY RUBOIY VA QIT'ALARINING BADIY KUCHI VA ULARNI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI</i>	972

